<i>Abdurahmonov Maqsad Bekjonovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanishning yetakchi omillari.....	720
<i>Abduvosiyeva Mahmuda Xamidullo qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ sifatlarini oshirish: zamonaviy yechimlar va muammolar	724
<i>Abduxalimova Yulduz Normurod qizi</i>	
Maktablarda sun'iy intellekt asosida xorijiy tillarni o'qitish afzalliklari	728
<i>Altimisheva Iroda Mavlonovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	731
<i>Ashurov Yusuf Alisher o'g'li</i>	
Bolalikni qayta anglash: mariya montessori pedagogik qarashlarining ilmiy asoslari	735
<i>Ismatullayeva Madinabonu Akmaljon qizi</i>	
14-15 yoshli o'quvchilarning jismoniy tarbiya vositalari orqali jismoniy tayyorgarligi samaradorligini oshirish metodi	740
<i>Karimboyev Og'abek Qadamboyevich</i>	

O'zbekiston xalqlarining amaliy san'ati va ma'naviy merosini o'rganish: tarixiy va pedagogik jihatlar	744
Kayumov Erkin Kazakbayevich	
Fizika ta'limida kognitiv texnologiyalar asosida talabalarning mantiqiy va analitik tafakkurini rivojlantirish yo'llari	748
Madumarov Shodonbek Az'amjonovich	
Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonlarida pedagogik-psixologik bilimlarning ahamiyati	751
Muratova Shaxnoza Ibatovna	
Yoshlar o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlashda pedagogik resurslar va hamkorlik infratuzilmasining ahamiyati	754
Matnazarov O'ktam Latipovich	
Maxsus pedagogika o'qituvchilarining pedagogik va psixologik tayyorgarlik darajasi	757
Oxunov Ilxomjon Abdunabiyeich	
Funksional bog'liqlikni tushunishda vizual-eksperimental metodning samaradorligi	760
Qobilova Nargiza Anvarovna, Shamuratov Zafar Ergashevich	
The Psychological Importance of Emotional Intelligence and Stress Resilience in Increasing Professional Efficiency of Primary School Pedagogues	766
Tajiboyeva Odinakhon	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlar jarayoni sifatini monitoring qilish vositasi sifatida	769
Tashbayev Naim Sadikovich	
Axloqiy tafakkur va axloqiy qaror qabul qilish kompetensiyasi tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati	773
Temirova Oydina Muhiddinova	
Oliy ta'lim muassasalarida "Muhandislik kompyuter grafikasi" fanini o'qitishning metodik asoslari va zamonaviy yondashuvlari	776
Xamidov Dilshod Olimjon o'g'li	
Kasbiy ta'lim rahbarlarining individual yondashuv asosida kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari ...	780
Yangiboyev Kamol Norboyevich	
Тема экологических проблем как элемент духовно-нравственного воспитания студентов в произведениях Чингиза Айтматова	784
Абдулвохидов Элёр	
Девиантное поведение школьников в образовательной среде: проблемы классификации и гендерные особенности восприятия педагогами	789
Алимжанова Матлюба Юнусовна	
Анализ проблем развития профессиональной иноязычной компетенции по английскому языку у студентов медицинских вузов	793
Исраилова Илона Халитовна	
Психолого-педагогические условия использования изобразительной деятельности как средства стимуляции коммуникативных навыков у воспитанников с синдромом дауна	798
Каримова Регина Шовкатовна	
Методика развития специальной физической подготовленности футболистов 11–12 лет с использованием современного инновационного оборудования	802
Мирзабаев Диёрбек Камилович	
Нейроигра как эффективное средство развития познавательных и регуляторных функций у детей дошкольного возраста	805
Намазбаева Лола Закировна, Маткаримова Шарипа Рахимжановна	
Методы и приёмы технологии развития критического мышления в курсе "Общая педагогика": опыт проектирования учебного процесса в вузе	809
Янкина Рано Садыковна	

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA CHIZMACHILIK FANINI O'QITISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Xalimov Moxir Karimovich

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida chizmachilik fanini o'qitish jarayonida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini joriy etishning nazariy-metodik asoslari hamda amaliy istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqotda SI vositalarining o'quvchilarning fazoviy tasavvurini rivojlantirishdagi o'rni, chizmalarni avtomatik tahlil qilish imkoniyatlari va adaptiv o'qitish tizimlarining pedagogik afzalliklari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, sohada mavjud texnik infratuzilma yetishmovchiligi hamda pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyalari bilan bog'liq muammolar tahlil qilinib, ularni bar-taraf etish yo'llari sifatida gibril ta'lim modeli va TPACK metodologiyasi asosida metodik yechimlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, chizmachilik, pedagogik metodika, grafika, adaptiv o'qitish, gibril ta'lim, texnik infratuzilma, innovatsiya, vizualizatsiya, raqamli transformatsiya, virtual muhit, individual ta'lim, pedagogik texnologiyalar.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations and practical prospects of integrating artificial intelligence (AI) technologies into the teaching of technical drawing in general secondary schools. The study substantiates the role of AI tools in developing students' spatial thinking, enabling automated analysis of drawings, and enhancing the effectiveness of adaptive learning systems. In addition, the paper analyzes existing challenges related to insufficient technical infrastructure and the level of teachers' digital competencies. As possible solutions, methodological approaches based on the hybrid learning model and the TPACK framework are proposed.

Key words: artificial intelligence, technical drawing, pedagogical methodology, graphics, adaptive learning, hybrid learning, technical infrastructure, innovation, visualization, digital transformation, virtual environment, individualized learning.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретико-методические основы и практические перспективы вне-дрения технологий искусственного интеллекта (ИИ) в процесс преподавания черчения в общеобразовательных школах. В исследовании научно обоснована роль инструментов ИИ в развитии пространственного мышления учащихся, возможности автоматического анализа чертежей и педагогические преимущества адаптивных систем обучения. Также проанализированы проблемы, связанные с недостаточным уровнем технической инфраструк-туры и цифровых компетенций педагогических кадров. В качестве путей их решения предложены методические подходы, основанные на модели гибридного обучения и методологии TPACK.

Ключевые слова: искусственный интеллект, черчение, педагогическая методика, графика, адаптивное обу-чение, гибридное обучение, техническая инфраструктура, инновации, визуализация, цифровая трансформация, виртуальная среда, индивидуализация обучения.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimining raqamlashtirish jarayonida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, chizmachilik fanini o'qitishda SI texnologiyalarining qo'llanilishi yangi imkoniyatlar yaratib, an'anaviy ta'lim uslublarini tubdan o'zgartirmoqda. Butun dunyo bo'ylab ta'lim muassasalari raqamli transformatsiya jarayonini boshdan kechirayotgan bir davrda O'zbekiston ham bu jarayondan chetda qololmaydi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida zamonaviy texnologiyalarni ta'limga joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan ^[15].

Chizmachilik fani o'quvchilarning fazoviy tasavvur qobiliyatini, texnik fikrlashini va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda alohida o'rin tutadi. Ammo an'anaviy o'qitish usullari nafaqat vaqt talab etadi, balki o'qituvchidan yuqori malaka hamda har bir o'quvchiga individual yondashuv imkoniyatini ham talab qiladi. Aynan shu nuqtada sun'iy intellekt texnologiyalari muhim yordam beruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Holmes, Bialik va



Fadel o'z tadqiqotlarida ta'limda SI texnologiyalarining integratsiyasi o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim jarayonini ta'minlashi mumkinligini ta'kidlaydilar ^[6].

Mazkur maqolaning maqsadi umumta'lim maktablarida chizmachilik fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammolari va ularning yechimlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida chizmachilik fanini o'qitish jarayoni, predmeti sifatida esa SI texnologiyalarining ta'lim samara-dorligiga ta'siri ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sun'iy intellekt texnologiyalari chizmachilik fanini o'qitishda bir necha yo'nalishda qo'llanilishi mumkin. Birinchidan, SI asosidagi dasturlar o'quvchilarning chizmalarini avtomatik tekshirish va xatolarni aniqlash imkonini beradi. Masalan, AutoCAD kabi dasturlar SI algoritmlaridan foydalanib, chizmadagi geometrik shakl-larni taniy oladi va xatolarni tuzatish bo'yicha tavsiyalar beradi ^[3]. Ikkinchidan, SI virtual o'qituvchi rolini o'ynab, o'quvchilarga individual yordam ko'rsatishi mumkin. Bu, ayniqsa, katta sinflar va cheklangan o'qituvchi resurs-lari mavjud bo'lgan holatlarda foydali hisoblanadi.

Luckin va hamkasblarining tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, adaptiv o'qitish tizimlari har bir o'quvchining o'ziga xos o'rganish sur'atini hisobga olib, materiallarni moslashtira oladi ^[11]. Chizmachilik fanida bu o'quvchi-larning fazoviy tasavvur darajasiga qarab mashqlar murakkabligini avtomatik ravishda sozlash imkonini beradi. Bundan tashqari, SI texnologiyalari o'quvchilarning o'rganish jarayonini kuzatib, qiyinchilik tug'diruvchi mavzularni aniqlash va qo'shimcha tushuntirishlar taqdim etish orqali ta'lim sifatini oshiradi.

Zamonaviy SI vositalari, jumladan, mashinaviy ko'rish (computer vision) texnologiyalari qo'lda chizilgan chizmalarni raqamli formatga o'tkazish va tahlil qilish imkonini beradi. Bu o'quvchilarning an'anaviy chizmachilik ko'nikmalarini saqlab qolish bilan birga, raqamli texnologiyalar bilan ishlash tajribasini ham oshiradi. Chollet sun'iy intellekt va chuqur o'rganish algoritmlarining obrazlarni tanish qobiliyati insonning vizual idrok etish tizimiga yaqinlashayotganini ta'kidlaydi ^[1].

Biroq sun'iy intellekt texnologiyalarini chizmachilik ta'limiga joriy etishda bir qator muammolar mavjud. Birinchi va eng muhim muammo – bu texnik infratuzilmaning yetishmasligidir. O'zbekiston maktablarining ko'pchiligida zamonaviy kompyuter qurilmalari va yuqori tezlikdagi internet aloqasi yetarli emas. Mingaliyeva va boshqalarning Markaziy Osiyo davlatlarida olib borgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalarining 60 foizdan ortig'ida raqamli texnologiyalar uchun zarur bo'lgan texnik baza to'liq shakllanmagan ^[13].

Ikkinchi muhim muammo – o'qituvchilarning raqamli savodxonligi hamda SI texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha malakasining yetarli emasligidir. Ko'pchilik o'qituvchilar an'anaviy ta'lim usullariga o'rgangan bo'lib, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish uchun muntazam qayta tayyorgarlik kurslaridan o'tishi zarur. Williamson va Eynsley o'qituvchilarning professional rivojlanishi zamonaviy ta'lim texnologiyalarini muvaffaqiyatli joriy etish-ning asosiy sharti ekanini ta'kidlaydilar ^[22].

Uchinchidan, SI dasturlari va platformalarining narxi ham muammo hisoblanadi. Kommersiya dasturiy ta'minotlari litsenziyalari qimmat bo'lib, byudjeti cheklangan maktablar uchun ularni sotib olish mushkul. Garchi ochiq kodli alternativalar mavjud bo'lsa-da, ular ko'pincha to'liq funksional imkoniyatlarga ega emas yoki foyda-lanish uchun yuqori texnik bilim talab qiladi. Conrads va hamkasblarining Yevropa Komissiyasi uchun tayyor-lagan hisobotida ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etishning moliyaviy o'lchamlari ta'lim siyosatini ishlab chiqishda e'tiborga olinishi kerakligi qayd etilgan ^[2].

To'rtinchidan, ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik masalalari ham katta ahamiyatga ega. SI tizimlari sama-rali ishlashi uchun o'quvchilar to'g'risida katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plashi va tahlil qilishi kerak. Biroq bu jarayonda shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi hamda noto'g'ri foydalanishning oldini olish muhim hisoblanadi. Tsai va boshqalar ta'limdagi ma'lumotlar xavfsizligi muammolarini hal qilishda aniq yo'riqnomalar va standartlar zarurligini ta'kidlaydilar ^[21].

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Umumta'lim maktablarida chizmachilik fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish sama-radorligini aniqlash maqsadida pedagogik tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqot jarayonida Holmes va Bialik tomonidan tavsiya etilgan adaptiv ta'lim prinsiplari hamda Mishra va Koehlarning TPACK modeli metodik asos sifatida qabul qilindi. Mazkur yondashuv chizmachilik darslarida nazariy bilim, pedagogik mahorat va texnologik vosi-talarni uyg'unlashtirish imkonini berdi. Eksperiment davomida o'quvchilar chizmalarni bajarishda mashinaviy ko'rish (computer vision) tizimlaridan foydalanib, chizmadagi geometrik shakllarni aniqlash hamda o'lcham qo'yishdagi xatolarni real vaqt rejimida tahlil qildilar. Shuningdek, 3D generativ modellash vositalari orqali ikki o'lchovli chizmalarni uch o'lchovli ob'ektlarga aylantirish jarayonida o'quvchilarning fazoviy tasavvur dara-jasi diagnostika qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijasida o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarida sezilarli o'sish kuzatildi. Tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda o'z aksini topgan.

1-jadval: Chizmachilik darslarida SI texnologiyalarini qo'llash samaradorligi

Baholash mezonlari	Nazorat guruhi (an'anaviy)	Tajriba guruhi (SI bilan)	O'sish ko'rsatkichi
Fazoviy tasavvur darajasi	60 %	84 %	+24 %
Grafik savodxonlik darajasi	55 %	78 %	+23 %
Topshiriqni bajarish vaqti	45 daqiqa	32 daqiqa	-13 daqiqa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, SI vositalari o'quvchilarga individual yondashuvni ta'minlovchi virtual yordamchi rolini o'taydi. Bu, ayniqsa, o'qituvchi resurslari cheklangan va sinflarda o'quvchilar soni ko'p bo'lgan holatlarda ta'lim sifatini kafolatlashning muhim omilidir. Biroq Mingaliyeva va boshqalarning tadqiqotlariga tayangan holda aytish mumkinki, maktablarning 60 foizdan ortig'ida texnik bazaning to'liq shakllanmaganligi ushbu metodikani keng ko'lamda joriy etishga to'sqinlik qilmoqda. Shunga qaramay, tajriba guruhi ko'rsatgan natijalar chizmachilik ta'limini raqamli transformatsiya qilish bitiruvchilarning muhandislik-grafik kompetensiyalarini shakllantirishda istiqbolli yo'nalish ekanligini tasdiqlaydi.

Yuqorida sanab o'tilgan muammolarga qaramay, sun'iy intellekt texnologiyalarini chizmachilik ta'limiga joriy etishning bir qator istiqbolli yo'llari mavjud. Birinchidan, davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan maktablarga texnik yordam ko'rsatish dasturlarini kengaytirish zarur. O'zbekiston hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan "Har bir maktabga – zamonaviy kompyuter sinfi" dasturi bu yo'nalishda muhim qadam hisoblanadi ^[16].

Ikkinchidan, o'qituvchilar uchun maxsus treninglar va qayta tayyorgarlik kurslari tashkil etish lozim. Bu kurslar nafaqat SI texnologiyalarining texnik jihatlarini, balki ularni pedagogik jarayonga samarali integratsiya qilish metodikasini ham o'z ichiga olishi kerak. Mishra va Koehler tomonidan ishlab chiqilgan TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) modeli texnologiya, pedagogika va fan bilimlarini birlashtirishning samarali ramkasini taqdim etadi ^[14].

Uchinchidan, ochiq kodli va bepul SI vositalaridan foydalanishni rag'batlantirish mumkin. Masalan, Google Workspace for Education, Microsoft Education platformalari yoki Fusion 360 kabi dasturlar ta'lim muassasalari uchun bepul yoki imtiyozli narxlarda taqdim etiladi. Bundan tashqari, mahalliy dasturiy ta'minot ishlab chiquvchilar bilan hamkorlik qilib, milliy ta'lim ehtiyojlariga moslashtirilgan yechimlar yaratish mumkin. Schleicher OECD ma'lumotlariga asoslanib, muvaffaqiyatli ta'lim tizimlari texnologik innovatsiyalarni mahalliy kontekstga moslashtirishda ehtiyotkor va strategik yondashuvni qo'llashini ko'rsatadi ^[20].

To'rtinchidan, bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasini qo'llash maqsadga muvofiq. Dastlab pilot loyihalar orqali ayrim maktablarda SI texnologiyalarini sinab ko'rish, tajribani tahlil qilish va keyinchalik kengroq miqyosda joriy etish samaraliroq natija beradi. Bu yondashuv xatolarni minimallashtirish va eng muvaffaqiyatli amaliyotlarni aniqlash imkonini beradi. Rogers innovatsiyalarning tarqalishi nazariyasida erta qabul qiluvchilar guruhining tajribasidan foydalanish muhimligini ta'kidlaydi ^[18].

Beshinchidan, gibrid yondashuv – ya'ni an'anaviy va raqamli ta'lim usullarini birlashtirishni amalga oshirish zarur. To'liq raqamli ta'limga o'tishning hojati yo'q; aksincha, SI texnologiyalarini an'anaviy chizmachilik ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beruvchi vosita sifatida qo'llash maqsadga muvofiq. Graham aralash ta'lim modellarining afzalliklari to'g'risida yozib, an'anaviy va onlayn ta'limning birlashtirilishi har ikkala yondashuvning eng yaxshi tomonlarini uyg'unlashtirishi mumkinligini ta'kidlaydi ^[4].

Chizmachilik fanini o'qitishda SI texnologiyalarini samarali qo'llash uchun quyidagi amaliy tavsiyalar berilishi mumkin. Birinchidan, har bir dars uchun aniq maqsad va natijalarni belgilash kerak. SI vositalari bu maqsadlarga erishish uchun qo'llab-quvvatlovchi rol o'ynashi lozim, ular o'z-o'zidan maqsad bo'lmasligi kerak. Ikkinchidan, o'quvchilarning turli darajadagi ehtiyojlarini hisobga oluvchi differensiallashtirilgan topshiriqlar tizimini yaratish zarur. SI adaptiv tizimlari bu jarayonni avtomatlashtirib, har bir o'quvchiga mos keladigan qiyinchilik darajasini taklif qilishi mumkin.

Uchinchidan, o'quvchilarga doimiy qayta aloqa (feedback) berish tizimini yo'lga qo'yish muhim. SI texnologiyalari real vaqt rejimida xatolarni aniqlash va tuzatish bo'yicha tavsiyalar berishi mumkin, bu esa o'quvchilarning tezroq o'rganishiga yordam beradi. Hattie va Timperley samarali qayta aloqaning ta'lim natijalarini sezilarli darajada yaxshilashini ko'rsatgan tadqiqotlar o'tkazganlar ^[5].

To'rtinchidan, loyiha asosidagi ta'lim yondashuvini SI texnologiyalari bilan birlashtirish foydali bo'ladi. O'quvchilar real hayotiy muammolarni hal qilish uchun chizmalar tayyorlashda SI vositalaridan foydalanish-



lari mumkin. Bu nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki tanqidiy fikrlash va muammo yechish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Krajcik va Shin loyiha asosidagi ta'limning o'quvchilarning chuqur tushunishini rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaganlar^[8].

Beshinchidan, o'quvchilar va ota-onalarni raqamli savodxonlik bo'yicha o'qitish dasturlarini amalga oshirish zarur. SI texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun nafaqat o'qituvchilar, balki o'quvchilar va ularning ota-onalari ham raqamli kompetensiyalarga ega bo'lishlari kerak. Livingstone va Helsper oilaviy raqamli savodxonlik ta'lim muvaffaqiyatida muhim rol o'ynashini isbotlaganlar^[10].

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'limga muvaffaqiyatli joriy etgan davlatlar aniq strategiya va uzoq muddatli rejalar asosida harakat qilganlar. Singapur hukumati 2018-yilda "AI Singapore" dasturini ishga tushirib, ta'lim tizimida SI texnologiyalarini keng qo'llashni boshladi. Dastur doirasida maktablarga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, o'qituvchilarni tayyorlash va mahalliy SI yechimlarini ishlab chiqish amalga oshirildi^[9].

Finlyandiya ta'lim tizimi ham SI texnologiyalarini integratsiya qilishda oldinga borgan davlatlar qatorida. Finlyandiya o'qituvchilarga katta avtonomiya berib, ularning professional rivojlanishiga katta e'tibor qaratadi. Bu yondashuv o'qituvchilarning yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va samarali qo'llashga tayyor bo'lishlarini ta'minlaydi. Sahlberg Finlyandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyati o'qituvchilarning yuqori malakasi va doimiy rivojlanishiga asoslanganligini ta'kidlaydi^[19].

Janubiy Koreya davlati "Smart Education" strategiyasini amalga oshirib, barcha ta'lim muassasalarini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlaydi va raqamli ta'lim kontentini yaratdi. Bu tajriba shuni ko'rsatdiki, davlat tomonidan umumiy yo'nalish belgilanishi va moliyaviy qo'llab-quvvatlash ta'lim tizimini samarali transformatsiya qilish uchun zarur^[7].

Kelajakda chizmachilik fanini o'qitishda SI texnologiyalarining roli yanada kuchayishi kutilmoqda. Virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR) texnologiyalari bilan birgalikda SI o'quvchilarga immersiv ta'lim tajribasini taqdim etishi mumkin. Masalan, o'quvchilar virtual muhitda 3D chizmalar ustida ishlashi va SI yordamida darhol qayta aloqa olishlari mumkin. Radiant va hamkasblarining tadqiqotlari VR texnologiyalarining fazoviy tasavvurni rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi^[17].

Bundan tashqari, kelajakda SI tizimlari nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki ijodiy fikrlashni ham rivojlantirishga yordam berishi mumkin. Generativ SI modellari o'quvchilarga dizayn alternativalarini taklif qilib, ularning ijodiy potensialini oshirishi mumkin. Biroq bu jarayonda insoniy omil – o'qituvchining roli va o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati – asosiy bo'lib qolishi kerak. Luckin va boshqalar ta'limda SI texnologiyalarining insonparvar yondashuvini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydilar^[12].

O'zbekiston kontekstida quyidagi tavsiyalar berilishi mumkin: davlat siyosatida ta'limni raqamlashtirishga ustuvor ahamiyat berish davom ettirilishi; ta'lim muassasalari uchun SI texnologiyalari va dasturiy ta'minotni sotib olishda imtiyozli sharoitlar yaratilishi; oliy ta'lim muassasalarida ta'lim texnologiyalari va SI bo'yicha mutaxassislar tayyorlash; xalqaro hamkorlikni kengaytirish va ilg'or tajribalarni o'rganish; milliy til va madaniy xususiyatlarni hisobga oluvchi SI yechimlarini ishlab chiqish; ta'lim jarayonida SI texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini doimiy monitoring qilish va baholash tizimini joriy etish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sun'iy intellekt texnologiyalarini chizmachilik fanini o'qitish jarayoniga joriy etish zamonaviy ta'lim tizimining tabiiy rivojlanish yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Garchi texnik, moliyaviy va kadrlar tayyorlash bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lsa-da, ularni hal etish uchun aniq strategiyalar hamda amaliy yondashuvlarni ishlab chiqish mumkin. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, o'qituvchilarni qayta tayyorlash, xalqaro tajribadan foydalanish va bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasi orqali SI texnologiyalarini ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish imkoniyati mavjud.

Kelajakda SI texnologiyalari ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanishi, o'quvchilarga individual yondashuvni ta'minlashi, ta'lim sifatini oshirishi hamda yangi kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynashi kutilmoqda. Biroq har doim shuni yodda tutish lozimki, texnologiya faqat vosita bo'lib, asosiy maqsad – o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash va ularni kelajakdagi muvaffaqiyatli faoliyatga tayyorlashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Chollet, F. (2019). On the measure of intelligence. arXiv preprint arXiv:1911.01547.
2. Conrads, J., Rasmussen, M., Winters, N., Geniet, A., & Langer, L. (2017). Digital education policies in Europe and beyond: Key design principles for more effective policies. Publications Office of the European Union.
3. Eastman, C., Teicholz, P., Sacks, R., & Lee, G. (2018). BIM handbook: A guide to building information modeling for owners, designers, engineers, contractors, and facility managers (3rd ed.). John Wiley & Sons.

4. Graham, C. R. (2006). Blended learning systems: Definition, current trends, and future directions. In C. J. Bonk & C. R. Graham (Eds.), *The handbook of blended learning: Global perspectives, local designs* (pp. 3–21). Pfeiffer.
5. Hattie, J., & Timperley, H. (2007). The power of feedback. *Review of Educational Research*, 77(1), 81–112. <https://doi.org/10.3102/003465430298487>
6. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). *Artificial intelligence in education: Promises and implications for teaching and learning*. Center for Curriculum Redesign.
7. Kim, H., & Lee, M. (2021). A case study on the smart education policy in South Korea. *International Journal of Educational Development*, 82, 102355. <https://doi.org/10.1016/j.ijedudev.2020.102355>
8. Krajcik, J. S., & Shin, N. (2014). Project-based learning. In R. K. Sawyer (Ed.), *The Cambridge handbook of the learning sciences* (2nd ed., pp. 275–297). Cambridge University Press.
9. Lee, L. H., & Tan, K. L. (2020). AI Singapore: Towards developing a sustainable AI ecosystem. *AI Magazine*, 41(1), 46–58.
10. Livingstone, S., & Helsper, E. (2008). Parental mediation of children's internet use. *Journal of Broadcasting & Electronic Media*, 52(4), 581–599. <https://doi.org/10.1080/08838150802437396>
11. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). *Intelligence unleashed: An argument for AI in education*. Pearson Education.
12. Luckin, R., Cukurova, M., Kent, C., & du Boulay, B. (2022). Empowering educators to be AI-ready. *Computers and Education: Artificial Intelligence*, 3, 100076. <https://doi.org/10.1016/j.caeai.2022.100076>
13. Mingaliyeva, Z., Abdrakhmanova, G., & Nurlanova, N. (2022). Digital transformation in education systems of Central Asian countries: Current state and prospects. *Central Asian Journal of Education*, 7(2), 45–62.
14. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge. *Teachers College Record*, 108(6), 1017–1054.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni (2020). "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida (PF–6079-son). O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi.
16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (2021). Umumta'lim maktablarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash chora-tadbirlari to'g'risida (№ 145). O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi.
17. Radianti, J., Majchrzak, T. A., Fromm, J., & Wohlgenannt, I. (2020). A systematic review of immersive virtual reality applications for higher education: Design elements, lessons learned, and research agenda. *Computers & Education*, 147, 103778. <https://doi.org/10.1016/j.compedu.2019.103778>
18. Rogers, E. M. (2003). *Diffusion of innovations* (5th ed.). Free Press.
19. Sahlberg, P. (2015). *Finnish lessons 2.0: What can the world learn from educational change in Finland?* (2nd ed.). Teachers College Press.
20. Schleicher, A. (2020). *The impact of COVID–19 on education: Insights from education at a glance 2020*. OECD Publishing.
21. Tsai, Y. S., Rates, D., Moreno-Marcos, P. M., Muñoz-Merino, P. J., Jivet, I., Scheffel, M., Drachsler, H., Kloos, C. D., & Gašević, D. (2020). Learning analytics in European higher education—Trends and barriers. *Computers & Education*, 155, 103933. <https://doi.org/10.1016/j.compedu.2020.103933>
22. Williamson, B., & Eynon, R. (2020). Historical threads, missing links, and future directions in AI in education. *Learning, Media and Technology*, 45(3), 223–235. <https://doi.org/10.1080/17439884.2020.1798995>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.